OILANING TARBIYAVIY IMKONIYATLARINI TAŞXIS ETIŞ METODIKASI

Uralova Gulbahor Öktamovna

Nizomiy Ganjaviy nomidagi ÖzMPU Boşlanğiç ta’lim pedagogikasi kafedrasi dotsenti, PhD

Norboyeva Farzina Xusniddin qizi

Nizomiy Ganjaviy nomidagi ÖzMPU “Ta’lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi (Boşlanğiç ta’lim)” 2-bosqiç magistranti

Annotatsiya: Uşbu maqolada oilaning tarbiyaviy salohiyatini ilmiy asosda örganişni, baholaşni va taşxis qöyişning zamonaviy metodikalari tahlil qilinadi. Şuningdek, oilaviy muhitni taşxislaş mezonlari, psixodiagnostik usullar hamda taşxis natijalariga köra oilalar bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik işlar tizimi yoritib berilgan.

Kalit sözlar: oila, tarbiyaviy imkoniyat, taşxis, pedagogik madaniyat, psixologik muhit, ijtimoiy axloq, hamkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются современные методики научного изучения, оценки и диагностики воспитательного потенциала семьи. Также освещены критерии диагностики семейной среды, психодиагностические методы и система педагогико-психологической работы с семьями по результатам диагностики.

Ключевые слова: семья, воспитательный потенциал, диагностика, педагогическая культура, психологическая среда, социальная этика, сотрудничество.

Abstract: This article analyzes modern methodologies for the scientific study, assessment, and diagnosis of the family’s educational potential. Additionally, the criteria for diagnosing the family environment, psychodiagnostic methods, and the system of pedagogical and psychological work conducted with families based on diagnostic results are highlighted.

Keywords: family, educational opportunities, diagnosis, pedagogical culture, psychological environment, social morality, cooperation.

Kiriş

Jamiyat taraqqiyotida barkamol avlodni voyaga yetkaziş eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oila birlamçi ijtimoiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan oilada bola şaxsining dastlabki ijtimoiy, axloqiy va psixologik asoslari şakllanadi. Şu sababli oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini örganiş va baholaş, ya’ni taşxis qiliş pedagogika fanining muhim vazifalaridan biridir. Hozirgi globallaşuv davrida axborot oqimining kuçayişi, ijtimoiy muammolar va oilaviy nizolar bolalar tarbiyasiga bevosita ta’sir körsatmoqda. Şu bois oiladagi tarbiyaviy muhitni çuqur tahlil qiliş, mavjud kamçiliklarni aniqlaş va ularni bartaraf etiş yöllarini işlab çiqiş dolzarb masalaga aylangan.

Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari tuşunçasi pedagogikada muhim kategoriyalardan biri bölib, u oilaning bola şaxsini har tomonlama rivojlantirişga qaratilgan içki va taşqi resurslar majmuini anglatadi. Bu resurslar bolaning jismoniy, aqliy, ma’naviy-axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan kamol topişini ta’minlovçi şart-şaroitlar va ta’sirlar yiğ‘indisidan iboratdir. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari nafaqat moddiy ta’minot bilan, balki, eng avvalo, ota-onaning ma’naviy saviyasi, madaniyati, pedagogik bilim va tajribasi, şuningdek, oiladagi psixologik muhit bilan belgilanadi. Ota-onaning bolaga bölgan munosabati, mehr-muhabbati, e’tibori, adolatli va izçil talablari bolaning şaxs sifatida şakllanişida hal qiluvçi rol öynaydi. Soğ‘lom psixologik muhit hukm surgan oilada bola özini erkin, işonçli va himoyalangan his etadi, bu esa uning mustaqil fikrlaşi va ijtimoiy faolligini rivojlantiradi.Şuningdek, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari ota-onaning hayotiy pozitsiyasi, dunyoqaraşi va ijtimoiy mas’uliyatiga ham bevosita boğ‘liqdir. Agar ota-ona jamiyatda faol, qonunlarga hurmat bilan qaraydigan, mehnatsevar bölsa, bola ham ayni fazilatlarni özida şakllantiradi. Çunki bola köproq ota-onaning sözlaridan köra, ularning kundalik xatti-harakatlarini kuzatiş orqali tarbiya oladi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlariga oilaviy an’analar va qadriyatlar ham kiradi. Oila doirasida şakllangan milliy urf-odatlar, diniy va axloqiy qaraşlar, bayramlarni nişonlaş, kattalarga hurmat, kiçiklarga mehr körsatiş kabi an’analar bolaning ma’naviy olamini boyitadi. Aynan şu an’analar orqali bola öz milliy özligini anglay boşlaydi va jamiyatda munosib örin egallaşga tayyorlanadi.

Bundan taşqari, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari uning ijtimoiy muhit bilan aloqadorligida ham namoyon böladi. Oila maktab, mahalla, jamoat taşkilotlari bilan hamkorlik qilsa, bolaga ta’sir etuvçi tarbiyaviy omillar yanada kuçayadi. Aksinça, bu aloqalar sust bölsa, tarbiya jarayonida uzilişlar yuzaga kelişi mumkin.

Tarbiyaviy imloniyatlarni taşxis qilişning mohiyati. Tarbiyaviy imkoniyatlarni taşxis qiliş pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi bölib, u tarbiya jarayonining holatini, samaradorligini hamda rivojlaniş istiqbollarini aniqlaşga qaratilgan ilmiy-amaliy jarayondir. Taşxis sözi yunonça “diagnosis” – aniqlaş, bilib oliş ma’nosini anglatadi. Pedagogik jihatdan olganda, tarbiyaviy taşxis tarbiya jarayonida mavjud holatni çuqur tahlil qiliş, muammolarni aniqlaş va ularni bartaraf etiş yöllarini belgilaşni nazarda tutadi.

Kuzatiş metodi . Uşbu metod orqali ota-ona va bola örtasidagi munosabatlar, oiladagi muloqot madaniyati, tarbiyaviy usullar, bolaga bölgan munosabat real şaroitda örganiladi. Kuzatiş orqali oilaviy muhitdagi tabiiy holatlar, ota-onaning bolaga nisbatan munosabati va bolaning xulq-atvori aniqlanadi. Bu metodning afzalligi şundaki, u tarbiya jarayonini sun’iy emas, balki tabiiy holda tahlil qiliş imkonini beradi.

Suhbat va intervyu metodi ham taşxis jarayonida muhim ahamiyatga ega. Suhbat orqali ota-onaning tarbiyaga munosabati, ularning pedagogik qaraşlari, muammolari va ehtiyojlari aniqlanadi. Ota-onalar bilan individual suhbatlar oilaviy tarbiya holatini çuqur tuşunişga yordam beradi. Şu bilan birga, bolalar bilan olib boriladigan suhbatlar orqali ularning oilaviy muhitga bölgan munosabati va ruhiy holati örganiladi.

Anketa metodi esa qisqa vaqt içida köp sonli ota-onalar va bolalar haqidagi ma’lumotlarni yiğ‘iş imkonini beradi. Anketalar orqali ota-onalarning tarbiya haqidagi bilim darajasi, oiladagi tarbiyaviy şaroitlar, muammolar va ehtiyojlar tizimli ravişda aniqlanadi. Uşbu metod statistik tahlil qiliş uçun ham qulaydir. Taşxisda keng qöllaniladigan metodlardan yana biri test va psixologik metodlardir. Bu metodlar yordamida bolaning ruhiy holati, şaxsiy xususiyatlari, özига bölgan işonçi, stressga çidamliligi hamda oilaviy muhitning psixologik ta’siri aniqlanadi. Psixologik testlar orqali bolaning emotsional holati va ijtimoiy moslaşuv darajasi baholanadi.

Taşxis metodlari. Tarbiyaviy imkoniyatlarni taşxis qilişda qöllaniladigan metodlar oiladagi tarbiyaviy muhitni har tomonlama örganişga xizmat qiladi. Bu metodlar yordamida ota-onaning tarbiyaviy saviyasi, oilaviy muhitning psixologik holati, bola şaxsining rivojlaniş darajasi hamda tarbiyaga ta’sir etuvçi omillar aniqlanadi. Metodlar bir-birini töldiruvçi tarzda qöllanilganda taşxisning aniqligi va işonçliligi ta’minlanadi.

Tarbiyaviy imkoniyatlarni aniqlaşda qöllaniladigan taşxis metodlari oilaviy tarbiya jarayonini har tomonlama va çuqur örganişga xizmat qiladi. Metodlarning töğri tanlanişi va kompleks qöllanilişi tarbiya samaradorligini oşirişga hamda oilaviy muammolarni öz vaqtida aniqlaşga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini taşxis qiliş barkamol avlodni tarbiyalaşda muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Taşxis orqali oilaviy muhitning kuçli va zaif tomonlari aniqlanib, tarbiya jarayonini takomillaştiriş imkoniyati yuzaga keladi. Oilaviy tarbiyani ilmiy asosda taşkil etiş jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova M. Oila pedagogikasi asoslari. – Toşkent: Fan, 2017.
2. Qodirova D. Pedagogik diagnostika. – Toşkent: Öqituvçi, 2019.
3. Abdullaeva S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toşkent: Innovatsiya, 2020.
4. Hasanboyeva O.U. va boşq. Oila pedagogikasi. – Toşkent: «Aloqaçi», 2007.
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toşkent: «Fan va texnologiya», 2008.
6. Ğoziyev E.Ğ. Umumiy psixologiya. – Toşkent: «Öqituvçi», 2010.
7. Eydemiller E.G., Yustitskis V. Psixologiya i psixoterapiya semi. – SPb.: Piter, 2008.